BIR ZARNING QADRI

Musurmonova Mohichehra Baxtiyor qizi

Toshkent Davlat Transport Universiteti

2-bosqich talabasi

E:mail:musurmonovamohichehra11@gmail.com

Tel:+99893-357-94-34

Annotation: In the article “Zarning qadri”, the aticle “Sheriyat ummonidan qatralar” by Maqsud Shayhzoda is taken as an object.In which the author’s position as poet and researcher is studied analytically. It also analyzes the aristic potential of Maqsud Shayhzoda, the lover of our rich classical heritage. Thepoet’s article skills are analyzed in limit theory.

Key words: article, source, heritage, fiction, classical, mastery, scholarly.

Annotatsiya: “Zarning qadri” maqolasida Maqsud Shayxzodaning “She’riyat ummonidan qatralar” maqolasi ob’ekt qilib olingan. Unda muallifning shoir va tadqiqotchi pozitsiyasi tahliliy o‘rganiladi. Shuningdek, boy klassik me’rosimizning oshig‘i bo‘lgan Shayxzodaning badiiy imkoniyati tahlil qilinadi.

Shoirning maqolanovislik mahorati izchil o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: maqola, manba, me’ros, badiiy adabiyot, klassik, mahorat, ilmiylik.

“Zar qadrini zargar bilar, chilangar neni bilar” degan xalqimizning purma’no maqoli beixtiyor yodimga kelaverdi Maqsud Shayxzodaning “She’riyat ummonidan qatralar”(“ Sovet O‘zbekistoi” gazetasi 1965 yil 7 mart) maqolasini o‘qib turib....

Ma’lumki O‘zbekiston xalq shoiri Maqsud Shayxzoda XX asr o‘zbek adabiyotining zabardast shoiri, yetuk dramaturgi, zukko tarjimoni, mohir pedagogi, nozik didli adabiyotshunosi, faol jamoatchi va publitsisti.

Shuningdek, sermahsul ayni damda, salmoqli merosini o‘rganganimizda u badiiy ijodda qanchalar yutuqqa erishgan bo‘lsa, adabiyotshunoslik – ilmiy faoliyatda ham undan kam natija ko‘rsatmaganligining guvohi bo‘lamiz.

Mazkur masalada olimning tadqiqot yo‘nalishlarini nisbatan quyidagi guruhlarga bo‘lib o‘rganamiz:

O‘zbek mumtoz adabiyoti va uning zabardast namoyondalari ijodiy merosi tahlili.

XX asr o‘zbek adabiyoti hamda ijodkorlari haqida portretlar, ilmiy tahlillar.

O‘zbek folklori hamda folkorshunosligi ilmiy va badiiy talqini.

Rus va jahon adabiyoti klassiklari hamda asarlarining ilmiy tahlili.

Davriy nashrlar (“Sharq yulduzi”, “Guliston” jurnallari, “Qizil O‘zbekiston”, “Lenin uchquni” gazetalari) da e’lon qilingan yigirma to‘rt nomdagi maqolalarini o‘rganib chiqish asnosida yuqoridagicha fikrga kelasan kishi. Ayni damda ijodkorning shijoatini kuzatib, Prezident Sh.Mirziyoev tomonidan ta’kidlangan e’tirof beixtiyor kishi e’tiborini o‘ziga jalb qiladi. “Adabiyot va san’atning naqadar qudratli kuchga ega ekani haqida sizdek zukko insonlar huzurida so‘z yuritishga, ochig‘ini ayisam, man biroz tortinaman” 1.

Darhaqiqat adibning ulkan ijodiy merosi kartatekasini kuzatganimizda naqadar rang-barang, serqirra boy va salmoqli natijadorligini ilg‘ash mumkin. Bepoyon sarhadlarni idrok etasan, cheksizliklar o‘ziga maftun qilaveradi.

Yuqorida nomi qayd etilgan maqola milliy mumtoz adabiyotimizning serjilo, go‘zal

manzaralari tahliliga –tadqiqiga bag‘ishlangan. Ming yilliklar bag‘ridan bo‘y cho‘zib kelayotgan milliy mumtoz adabiyotimiz ma’lum ma’noda Sharq tamaddunining tarkibiy qismi sifatida mukammallikka erishgan badiiy obida edi. Uning mavjlari Shayxzodadek badiiy tafakkur sohibini o‘ziga jalb etdi. Ohangrabosining asiri sifatida san’atkor zo‘r ishtiyoq bilan izlanishlar olib borishga erishdi. “Klassik poziyamizning ichki ma’naviy dunyosi meni ko‘p yillardan beri qiziqtirib keladi. Bashar durdonalari bo‘lmish g‘azallarda va ruboiylarda, qasidalarda va soqiynomalarda olovli ehtiroslar bilan birga vazmin fikrlarning omuxta bo‘lib ketishi san’atkordan chinakam iste’dod bilan birga zo‘r malaka va puxtalikni taqozo qilar edi” 2. deya e’tirof etgan tadqiqotchi o‘zidagi qaror topgan rag‘bat yetovida beixtiyor ob’ektga kirishib ketadi.

Maqolaning kompozitsiya asosi ham Shayxzodaga xos izchillikka ega. Unda maqsad, g‘oya mushtarakligida nazariy tahlildan munosabat boshlanadi. Sharq badiiyati ilmining to‘rt asosiy ustunlari e’tirof etiladi. “Ilmi bayon”, “Ilmi bade’”, “Ilmi aruz” va “Ilmi qofiya”.

Muallif navbatdagi rejada Markaziy Osiyo zaminidagi adabiyot nazariyasining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha ijod qilgan so‘z san’atkorlari va ularning asarlariga tayanib, qaydlarni asoslab beradi. Olim maqsad sari intilishda manba bilan ishlash ko‘nikmasini egalladi. Ana shu yo‘lda dastlab Rashididdin Votvotning “Hadoyiq us-sehr” (Sehrli bog‘chalar) asari (XII asr), Shams Qaysi Rohiyning aruz, qofiya va ilmi badiiyga oid “Almujom...” asari (XIII asr) ga e’tibor qaratadi. Manba o‘qish va tadbil mashaqqatlari izlanuvchining maqsadidan bir zum bo‘lsada beqarorlikka keltirolmadi. Yuqoridagi manbalar fors-tojik tilida bitilgan bo‘lib, dunyo yuzini ko‘riboq Movarounnahr hamda Xuroson, Eron va Hindistonda ommalashib ketdi. Aksariyat madrasalarning darsligiga aylandi.

Muallif tomonidan e’tibor qaratilgan muhim masala bu tahlilda manbaning orginalligi

va mukammaligi. Manbaga tayanib ishlashda uning nazariy tushunchalarini ifodalovchi, shuningdek, boy mumtoz adabiyotimizning taraqqiyot yo‘lida poydevor vazifasini o‘tagan ob’ektlarga e’tibor qaratishni ma’qul ko‘radi. Shu vajdan XIII asrning Xorazmlik allomasi Abu Yusuf Sakkokiy va uning arab tilida yozilgan (Ma’lumki Sharq musulmon mintaqasida arab tili umumiy intellektual aloqa vositasi sifatida e’tirof etilgan) “Muftox ul-ilm (Bilim kalidi)” ma’nolar va bayon faniga oid asarini hamda ularning XX asr boshlarigacha madrasalarning asosiy tayanch darsligi sifatida qo‘llanilib kelinganlini ta’kidlaydi. XIIIXIV asrlar ijodkori Alamon Taftazoniyning she’rda badiiylik masalasiga qaratilgan “Mutavval (dastlabki)” nomli asari uning ahamiyatini ta’kidlaydi. Chunki manbada adabiy jarayonga kirishishning dastlabki eng zarur masalalari xususida tushunchalar beriladi. Taftazoniy ta’rificha badiiylikning mohiyatini to‘liq idrok etib olmasdan namunalar yaratishning oqibati anchayin qusurli satrlarning yuzaga kelishi sabab bo‘ladi.

Shayxzoda adabiy manbashunos sifatida yuqorida zikr etilgan asarlarning mumtoz adabiyotimiz shuhratini ta’minlashdagi xizmatlarini aynan Navoiy, Jomiy, Bobur muvaffaqiyatlari zaminidan qidiradi. Yutuqlarining asosi sifatida idrok etadi.

Muallif Alisher Navoiy ijodining kamolatiga amaliy ta’sirni va “Mezon ul-avzon”, “Majolis unnafois”, “Munshoot”, “Muhokamat ul-lug‘atayn” hamda “Chor devon” iga kirgan ikkita “Debocha”larida yuqoridagi manbalarining ta’sirini yoritishda alohida e’tirof etadi. Navoiy asarlaridagi o‘ziga hoslikni ta’kidlagan holda ularning ijodiy intuitsiya yo‘nalishiga zamin bo‘lib xizmat qilganligini keltiradi. Olimning qaydida Sayfiy Buxoriy va Abdurahmon Jomiydek ustozlarning ta’sirini ham unutmagan holda Navoiyda munosabatning qaror topishida yirik nazariy manbalardan ilhomlanish yetakchilik qilgan, deya bayon qiladi.

Olim fikrini asoslashda muarrixlar qaydlariga ham tayanadi. Maqoladan ko‘zlangan

maqsadni yanada to‘laroq ifodalash uchun manoqib yo‘nalishdagi asarlardan keng foydalanishda kontras usulidan unumli foydalanadi. Keltirilgan parcha asosida muarrixni, uning imkoniyatini harakterlash bilan birga qit’ada ifodalangan shaxslar, ularning imkoniyati bayoni shuningdek, Navoiyga xos salohiyatni qiyosiy tiplash asnosida yoritib berilganligini ta’kidlaydi. Mumtoz adabiyotimizdagi bu o‘ziga xos nozik qirralarni ilg‘ash uchun kishi Shayxzodadek she’riyatning nafosatini seza bilish kerak. Ham nazariy, ham amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lish lozim.

Qit’ada Anvariy, Lutfiy, Kardariy, Zahriylar nomi zikr
etiladi: Turkisin ko‘rub qilurlar erdi tarki tavba ham,
Gar tirik bo‘lsalar erdi Lutfiy bilan Kardariy.
Bovujudi forsiy dar junbi she’r komilash,

Chist ash’ori Zahiru, kist bori Anvariy

Maqola davomida she’rning mazmuni yetuk nazariy tushuncha bilan talqin qilinadi. Kardariy, Zahriy, Anvariylarning shaxslari va imkoniyati analitik tarzda oydinlashtiriladi.

Muallif yuqorida zikr etilgan figuralarning nomlarini va shaxslarini aniqlash orqali adabiyotshunoslikka yangi, ayni damda o‘ta muhim ma’lumotlarni kiritib ketadi. Ya’ni Kardariyning kimligi, Zahriy degan shaxs to‘g‘risida ma’lumot beruvchi manbalarni solishtirib chiqadi va “Xush, Kardariy kim?" deya maxsus manbalarni qiyoslab, uning manzilini Xorazm diyorida Kardar degan qasabadan ekanligin aniqlaydi (odatda, tahmis, tahalluslarda tug‘ilib o‘sgan maskani nazarda tutib kelingan). Bu hukmga kelish uchun u Yoqut Hamoviyning “Mo‘jam ul –buldon” asariga murojaat qilgan. “Islom ensiklopediyasi”dan joy va uning nomlanishini aniqlagan. Shu yerlik Mahmud Bin Ali nomli shoir (vafoti 1360 yil) yashagani va u she’riy devondan tashqari “Nahjul farodis (jannatlar yo‘li)” nomli manzuma

yozganligi, o‘z davrida mazkur asar keng shuhrat qozonganligi, ko‘plab nusxalar ko‘chirilganligi, fors-arab tillariga o‘girilganligi – Tanosib san’ati borasida tayanch manba bo‘lganligini aniqlash bilan ularning ishonchliligini ham asoslaydi.

Zahriy ham yuqoridagi tarzda, yondashuv asnosida aniqlanib, Anvariyning asrdoshi Abulfozil Zahir bin Muhammad Foryobiy ekanligi (XII asrda Xorazmda tug‘ilib, Tabriz (Janubiy Ozarbayjon) da vafot etgani) aniqlandi. Ob’ektni yanada aniq kashf etish uchun Navoiyning mashhur “Soqiynoma”sida har ikkala shoir nomlarining zikr etilishiga alohida e’tibor qaratadi. Muarrixning yondashuvlari ham talqin ob’ekti voqeligini to‘liq qamrab olgandagina maqsadga erisha olishini nazarda tutsak, shuningdek, Davlatshohning Navoiy bilan tengqur-zamondosh, ijodkor ekanligini e’tiborga olinishi maqolaning ilmiyligini ta’minlagan. Solishtirish usulidan olim keng foydalangan.

Tahlilda tizimlilik allomaning alohida yutug‘i edi.

Shayxzoda maqola bayonida Alisher Navoiyning “Ilmi bade’” va “Tanosib” ilmini mukammal o‘zlashtirganligini, barcha nazmiy asarlarida unumli va o‘rinli foydalanilganligini, shuningdek, o‘zi ham o‘zlashtirgan bilimlariga tayanib nazariy asarlar yozganligini va buning asosida qudratli ko‘nikma yotganligini ta’kidlaydi. Badiiy san’atlar borasidagi maxsus asarlar va ularning mualliflari xususida aniq ma’lumotlar beradi. San’atlar xususida nazariy tushuncha keltiradi. Imkoniyati hamda badiiy ijoddagi roli xususida keng ma’lumot bilan o‘quvchini yaqindan tanishtiradi. Fikrini asoslashda Navoiy lirikasiga qaytib,

“O‘rtanurman kechalar hajringda andog‘kim, charog‘

Ravshan o‘yla rishta jismimdir, ko‘ngul o‘t, ashk yog‘.” matla’li g‘azalidan misol keltirib, lirik obrazning yaratilganlik badiiy vositalarini shoirona tuyg‘ular asosida, yuqori hissiy idrok bilan tahlil qiladi. Charog‘ yonmog‘i uchun lirik qahramon yonishi

kerak. Shunda u o‘zini fido imkoniyati bilan atrofga, borliqqa ziyo nurini bag‘ishlaydi. Jarayonning bevosita sub’ekti bo‘lgan Shayxzoda holatni keng ifoda etib, o‘quvchi diqqatini mavzuga jalb qila oladi. Shuningdek bir gazeta materiali imkoniyatiga mo‘ljallangan, cheklangan sig‘imda shuncha salmoqli mazmunni ifodalay bilganligi muallifning o‘ziga xosligidir.

Adabiyotlar:

1. (Mirziyov Shavkat. Amaliy natijadorlik, inson manfaatlarini ta’minlash-jamiyatni isloh etishining bosh maqsadidir. T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2018-yil,182-bet).
2. (Maqsud Shayxzoda. Asarlar 5-tom.G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. T.: 1973 yil, 5bet).
3. (Maqsud Shayxzoda. Asarlar. Beshinchi tom. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi “Adabiyot va san’at” nashryoti, 1973-yil, 7-bet).